

Chirchiq shahar XTMFMTTEB
tasarrufidagi 6-umumiy o`rta ta`lim
maktabining boshlang`ich sinf
o`qituvchisi Ergashova Gulchehraning
“**Navoyining hayoti bilan tanishamiz**”
mavzusidagi ochiq dars ishlanmasi



O`qituvchi: Har bir xalqning, millatning nomini, shuhratini ellarga yoyadigan buyuk farzandlari boladiki, ular umrboqiydirlar, nomlari tillarda va dillarda abadul-abad saqlanadi. Ularga hamma havas qiladi. Biz buyuk bobolarimiz sarkarda A.Temur va temuriylar avlodi bilan, shoiru-allomalari bilan dong taratgan o`zbek xalqining farzandlarimiz. Ulug bobokalonlarimiz Al-Xorazmiy Al-Beruniy Mirzo Ulugbek Abu Ali Ibn Sino Alisher Navoiy kabi buyuk zotlar ozbek xalqining nomini tillarda doston qilib kelmoqda. Bugungi tarbiyaviy soatimizni o`zbekning dong`ini dunyoga taratgan bobomiz A.Navoiyning 573 yillik tavalludini nishonlashga bagishladik va uni "Alisher Navoiyning hayoti bilan tanishamiz " deb nomladik.

ALISHER NAVOIY - BUYUK SHAXS

Mayin kuy sadolari ostida boshlovchilar sahnaga chiqishadi.

1-boshlovchi: „Qolmas jahon ichra mangu kishi ,
Faqat qolgusi yaxshi nomu ishi,,

2-boshlovchi: Sheriyat olamida tengsiz ham,tanho
Gazallarini oqib Lutfiydir shaydo.
Qalamini tebratgan ikki til aro,
Qutlug yosh muborak, Navoiy bobo.

1-boshlovchi: Assalomu-alaykum aziz mehmonlar, hurmatli oquvchilar! Bugun o`zbek adabiyotining asoschishi, shoir, olim, marifatparvar, faylasuf, musiqashunos, davlat arbobi Nizomiddin Mir Alisher Navoiy bobomiz tavalludining 573 yilligini nishonlash uchun bu yerga yig`ildik.

2- boshlovchi: Bugungi kechamizni so`z mulkning sultoni Mir Alisher Navoiy tavalludining 573 yiligiga bagishlaymiz va barchangizga kelibsiz , deymiz.

1-boshlovchi:

Hirot tuprog`ida voyaga yetgan,
“Qush tili” yo`llarini munavvar etgan,
Yillar tozonidan sog` – omon o`rgan,
Navoiy bobomlar,
Buyuk odamlar.



O`qituvchi: Alisher Navoiy qachon va qayerda tavallud topganlar?

A.Navoiy 1441- yil 9 - fevralda Hirot shahrida tugilgan. Shoirning otasi G`iyossiddin Kichina temuriylar saroyida amaldor, onasi shagzodalarga enagalik qiladi.

1- boshlovchi: Alisherning oilasida muhit qanday edi? Ota - onalari ko`proq nimalarga qiziqar edi?

Alisherning otasi shoirtabiat kishi edi. U ko`proq o`qishga, ilm- fanga, adabiyotga qiziqar edi. Oiladagi muhit Alisherda bolaligidanoq she`riyatga, adabiyotga qiziqish uyg`otdi. Alisherning uyida tez-tez shoirlar yigilishlardi. 3 - 4 yoshli Alisher ayrim baytlarni yoddan o`qib, o`tirganlarni hayratga qoldirardi. Yosh Alisher o`tkir zehqli, o`ta odobli, hozir javobli va ajoyib qobiliyati bilan ajralib turar edi. U yoshligidan boshlab juda ko`p kitoblar o`qir edi. U maktabda 9 yoshdan boshlab she`rlar yozgan. Ko`pgina shoirlarning she`rlarini yoddan aytib berar edi. Alisher 12 yoshda edi. Bir kuni u ustoz Mavlona Lutfiyni oldiga boradi. Lutfiy bundan xursand boladi. U yosh Alisherdan yangi yozilgan g`azallaridan o`qib berishni so`radi.

Navoiy yangi yozgan g`azalini o`qib beradi.

*Orazin yopqoch ko`zimdan sochilur har lahza yosh,
Bo`ylakim, paydo bo`lur yulduz, nihon bo`lg`och quyosh.*

Shunda Lutfiy Ofarin o`g`lim, - deydi. Bu g`azaldan hayajonlangan Lutfiy „Men o`zimning o`n, o`n ikki misradan iborat devonimni shu bir g`azalga almashgan bo`lur edim“, degan ekanlar.


Hamma o`quvchilar:
Navoiyning tilini,
Beruniy hikmatini,
Farobiy idrokini
O`rganamiz maktabda
O`rgatadi maktabda.

O`quvchi:
Ko`p jahongir ko`rgan bu dunyo,
Barchasiga guvoh yerosti
Lekin do`stlar she`r ahli aro
Jahongiri kam bo`lar rosti
Besh asrkim, nazmiy saroyini,
Titratadi zanjirband bir sher,
Temur tig`i yetmagan joyni
Qalam bilan oldi Alisher
Dunyo bo`ldi chamanim manim
O`zbekiston Vatanim manim.

O`quvchi: A.Navoiy bobomizni g`azalnafis shoir deydilar.
Bu bejiz emas albatta! Ular qalamiga mansub, hozirda
xalqimiz tomonidan sevib tinglanadigan „Qora ko`z”,
“Munajat”, „Chorgoh”, „Sunbula” ashulalari shular
jumlasiga kiradi.

Raq: „Munajat”-ashulasi bilan. Dilola.

O`quvchi:Alisher yoshligidan kitobni sevgan, tirishqoq va
sinchkov, zehni o`tkir bola bo`lgan. Maktabga bormasdan
turli kitoblarni mutoala qilgan. 1-bo`lib unga otasi „Qush
tili” kitobini olib beradi. 1 kuni otasi Alisherni maktabga olib
borganda



u o`zi bilan „Qush tili” kitobini ham olib boradi.
Bolalar domla bilan birgalikda 3-4 ta so`zni be, te, se deb
yoddan qaytarar edilar. Alisher bu so`zlarni 4-5 marta

aytganidan keyin zerikib, qo'lidagi „Qush tili“ kitobini olib o'qiy boshlaydi [Buni domla ko'rib qolib kitobni olib qo'yadi. Chunki bu maktablarda bunday kitoblarni o'qish mumkin emas edi. Domla kitobni qaytarib bermaydi. Alisher xafa bo'lib uyiga qaytadi. Kitobda tabiat manzarasi, o'simliklar, gullar, qushlar juda chiroyli qilib tasvirlangan edi.



Alisherning yoshligi

Alisher tabiatni, gullarni juda yaxshi ko'rar edi. U bog'da gullar ichida sayr qilib yurganda kitobi esiga tushib qoladi. U boshidan kitobni so'zlay boshlaydi. Qarasaki, u kitobning har bir so'zini eslab, birma –bir yoddan aytadi. Bundan u juda xursand bo'lib ketadi.

Bolalikdan yig' limning mag'zini,

Qarilik chog'i xarj qilgin oni.

2- boshlovchi: Alisher o'ziga qanday taxallus tanladi?



G'iyosiddin Kichkina degan kishining Alisher ismli o'g'li bo'lgan ekan. U yoshligidan uddaburon, ziyrak, bola bo'lib o'sibdi. 9yoshga to'lganda esa she'rlar yoza boshlabdi.

Odamlar uning yozgan she'rlarini miriqib tinglar ekanlar. Lekin bola hali o'ziga taxallus tanlamagan ekan. Kunlardan bir kuni yangi she'r yozibdi-da, uni boqqa chiqib baland ovozda o'qiy boshlabdi:

G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish.

El anga shafiqu mehribon bo'lmas emish.

Oltin qafas ichra gar qizil gul bitsa,

Bulbulga tikondek oshiyon bo'lmas emish.

Gul shoxida turgan bulbulni Alisherning yoqimli ovozi o'ziga maftun etibdi.

-Ey, xushovoz shoir, sen o'qigan she'rlar bulbullarning erta tongdagi navosidan ham yoqimli ekan. Ismingni bilsam bo'ladimi?

-Men Alisherman.

Bildim-bildim, yangi chiqqan shoir sen ekan-da. Endi sen o'zinga taxallus tanlab, she'rlarning oxiriga yozib qo'ygin.

Alisherga bulbulning navo so'zi yoqib qolibdi. Shundan keyin u yozgan g'azallariga o'z taxallusini Navoiy deb yozadigan bo'libdi.

O'quvchi:

O'zbek tilim- bu ona tilim,

Shuurimda yagona tilim

Navoiy asos solgan bu ona tilim

Tilim, tilim, bu ona tilim.

O'quvchi:

Ulug' tilim, elat-xalq tilim,

Davlat tilim bo'lsa, haq tilim.

Navoiydan minnatdor tilim,

Kuchga to'lib ma'no top tilim.

O'quvchi: A.Navoiy yoshligidan ona tilini yaxshi bilib, fors, arab tillarini ham puxta o'rganganlar. A.Navoiy o'zbek tilini javohir xazinasining benihoyat boyligi, badiiy madaniyatining nihoyat darajada yuksakligini, o'zbek tili

go'zalligini,nafisligini va jozibadorligini o'z g'azallarida ko'rsatib berganlar.

O`quvchi: Ulug' bobokalonimiz, tilimizning asoschisi, she'riyat mulkining sultonin, buyuk shoir va mutafakkir Mir Alisher Navoiy so'z haqida shunday deganlar:

*So'zdirki, nishon berur o'likka jondir,
So'zdirki, xabar berur jonga janondin.
Insonni so'z ayladi judo hayvondin,
Bilkim, guxari sharifroq yo'q andin.*

O`quvchi: Mir Alisher Navoiy bobomiz birinchilardan bo'lib ona tilimizda „Xamsa” „besh doston” yozganlar. Bular 1-Hayrat ul Abror, 2-Farxot va Shirin, 3-Layli va Majnun, 4-Sab'ai Sayyor, 5-Saddi Iskandariydan iborat.

O`quvchi: Bobomiz o'z g'azallarini va hikmatlarida insonlarni do'stlik va birodarlikka, halollikka, mardlikka, yaxshilikka, har bir insonni odamlar tashvishini o'ylovchi inson bo'lishga chaqirganlar.

O`quvchi: *Odamiy ersang demagil-odamiy
Oning kim yo'q g'amidin g'ami*

O`quvchi: *Olam ahli bilingiz, ish emas dushmanliq
Do'st bo'ling bir-biringizga, erur do'stlik ish.*

„Yolg'onchi” masali tinglanadi.

1- boshlovchi: Bobomiz o'z g'azallarida, dono hikmatlarida har bir insonni o'z so'ziga e'tibor berib so'zlashga chaqirganlar.Bobomiz ko'pgina she'riy misralari xalq maqollariga, hikmatlariga aylanib ketgan.

O`quvchilar:

- 1.Tilga ixtiyorsiz - elga e'tiborsiz.
- 2.Oz-oz o'rganib dono bo'lur,
Qatra- qatra yig'ilib daryo bo'lur.
- 3.Til bilgan el biladi.
- 4.So'zga e'tibor elga e'tibor
- 5.Bilmaganni so'rab o'rgangan olim,
Orlanib so'ramagan o'ziga zolim.

6.Yaxshi kishi yomonlarga ham
Yaxshiligini unutmas.

7.Kishidan yaxshi ot qolgay albatta jahonda,
Imkoning boricha ilm olmoq bo'lsin shioring.

8.Sabr qilsang ko'p bog'liq ish ochilur
Ishida oshiqqan ko'p toyilur.

Rivoyat: „Oqilona javob” o'qituvchi so'zlaydi.

O'quvchi: Husayn Bayqaro Hirotga podshoh etib tayinlanadi.
Alisher Navoiyni o'ziga vazir qilib oladi.Ular bolaliklaridan
do'st bo'lib o'sadi. Vazirlar ichida Navoiy hozirjavobligi
bilan ajralib turadi. Shoh hamma vaqt Navoiyning
nasihatlariga quloq soladi.

2- boshlovchi: Bayqaro va Navoiy haqida nimalarni bilasiz?

Qardosh turkman xalqi buyuk bobomizni hurmat qiladi,
asarlarini sevib o'qiydi. Hatto turkmanlar Navoiyni Mirali,
Husayn Bayqaroni esa Mirali Sulton Suyun deb atashgan
va ular haqida rivoyatlar to'qishgan.

Rivoyat : „Toshdan telpak tikib bo'ladimi?



Bir kuni Sulton Suyun Miralini gapda mir qilmoqchi bo'lib unga aqlga sig'maydigan bir yumushni topshiribdi. Sizga 3-kun muhlat, shu 3kun ichida toshdan telpak tikib kelasiz, - debdi

Agar hazratim ipini topib bersalar, 3kun ham gapmi, -Qanaqa ip-debdi Sulton Suyun yon berishni istamay.


-Tolning kulidan iylangan ip-da, shohim.

-Voy,dono-ey. Hech zamonda tolning kulidan ham ip qilib bo'lar kanmi?

-Unday bo'lsa, toshdanam telpak tikib bo'larkanmi, shohim?-debdi Mirali.

Miralining hozirjavobligidan qattiq izza bo'lgan Sulton Suyun yer chizib qolgan ekan.

Rivoyat,,Non isi “



Huroson podshosi Husayn Bayqaro kunlaridan bir kuni vazirlarini oldiga chaqiribdi-da, ularga topshiriq beribdi.,,Menga dunyodagi eng xushbo'y hidni keltiring. Vazirlar unga quchoq – quchoq gul keltirishibdi.Husayn Bayqaro tan olmabdi.....

A.Navoiy aqligi bilan kishilarni o'limdan olib qolgan ekanlar.

1- boshlovchi A.Navoiy bobomiz o'z asarlarida ustozning, ota-onaning hurmatini to'liq ado etishga chaqirganlar.

O`quvchi: *Haq yo`linda kim senga bir harf o`qitmish ranj ila,*

Aylamak oson emas haqqin ado yuz ganch ila.
Muqaddas kitoblarda aytilganidek, bobomiz ham ota-ona
O`quvchi: *Boshni fido ayla ato qoshig`a,*
Jismni qil sadqa ano qoshig`a.
Tunu-kunningga aylagin nur bosh
Birisin oy ayla , birisin quyosh.
Deb e`zozlashga chaqirganlar.

O`quvchi: *Tong saharlar ko`kka boqsam mahliyo bo`lib,*
Yuragimda nurlar oqar kuyga jon bo`lib.
„Qaro ko`zim”, hamda mashhur „Munajat” bo`lib
Anglarmanki, mangu so`nmas bir siymo bo`lib
Samo uzra kulib turar Navoiy bobom,
Yurtim uzra kezib yurar Navoiy bobom.

O`quvchi: *O`tar yana necha yillar, necha asrlar*
Istiqlolning zo`r farzandi qurar qasrlar
Hamon mangu porlayverar she`riy satrlar-
Mir Alisher qalamidan yaralgan durlar
Zamonlarning bag`rin tilib o`tgandek nurlar
Asrlardan o`zib borar Navoiy bobom
Yurtim uzra kezib yurar Navoiy bobom.

2- boshlovchi: A.Navoiyning o`lmas asarlari, yaratgan durdonalari avloddan avlodga meros sifatida o`tib, mustaqilligimizni mustahkamlaydi.

1- boshlovchi: Donolarning donosi bobomizning yaxshi xislatlarini, buyuk ishlarini sanab o`tsak tugatib bo`lmaydi. Bugun oz bo`lsa ham Navoiy bobomiz ruhini shod eta olgan bo`lsak, o`zimizni baxtiyor deb hisoblaymiz.

2- boshlovchi: Navoiy bobomiz-bizning bobomiz,o'zbek xalqinimng buyuk shoiridir, biz ham Navoiy bobomizdek o'qish, ilm olish chin inson bo'lishga harakat qilamiz.

O`quvchi:

Hazrat bobo esladik biz.

Dillar quvonchga to'ldi.

Bobom ruhi madadkordir

Ko'zlar ziyoga to'ldi.

O`quvchi:

Sabog'ingiz boshlarga toj,

Hech o'chmasin shamingiz

Yillar osha yashnayversin

Ijodingiz, nomingiz.

Raq: Dilxiroj. Bolalar.

1- boshlovchi: Hazrat Navoiy eldan yordamlarini ayamasdilar. Ular Hirotida bir qancha mashhur oromgohlar, madaniyat koshonalari bunyod etganlar. Hazrat shaxsiy mablag'lariga ko'pgina xonagohu madrasalar, 9ta hammom 14ta masjid qurdirganlar. Hatto masjid qurilishida Alisher Navoiyning o'zlari ham choponlari qatini qayrib qo'yib ishlaganlar.

2- boshlovchi: O'zbek xalqining ulug' shoiri va mutaffakiri A.Navoiy Jahon madanyati hazinasiga katta hissa qo'shgan. Uning nomi va ijodiy merosi biz uchun g'oyat tabarrukdir.

O`qituvchi: Siz mana shunday buyuk zotlar yashab o'tgan O'zbekiston deya atalmish go'zal diyorda o'sib katta bo'moqdasiz. Men sizlarga Alisher Navoiydagi o'tkir zehinlikni, o'ta odoblikni tilayman.Shoyat sizlarning orangizdan ham shunday ulug' insonlar yetishib chiqishiga tilakdoshman.

1-boshlovchi: Shu bilan bugungi tarbiyaviy soatimiz o'z nihoyasiga yetdi.

2-boshlovchi Rahmat sog'-salomat bo'linglar!

